

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI BUXORO DAVLAT  
UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI MAKTABGACHA  
TA'LIM VA BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA  
METODIKASI KAFEDRALARI**

**"BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATI VA  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI:  
INNOVATSIIYA, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XALQARO  
TAJRIBALAR"**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANIMATERIALLARI**

**2022-yil, 13-14 may**

**BUXORO- 2022**

jarayonini innovatsion usullar yordamida tashkil etishga oid faoliyatning markazida tarbiyalanuvchilar shaxsiyatini va intelektual qobiliyatini rivojlantirish maqsadi turishi lozim. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarni innovatsion texnologiyalar asosida itelektual qibiliyatini shakllantirish sifatini takomillashtirishni taqozo etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun T.: 23 sentabr 2020-yil
2. Qayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2013.
3. N.M Aksarina, Go‘dak bolalar tarbiysi, T.:1983.(50)
4. Амонов У. С. Научный подход А. Фитрата к пословицам // Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
5. O.R.Avezov. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies. American journal of social and humanitarian research 3 (No. 1), 546-550
6. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences.
- 7.Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." *Middle European Scientific Bulletin* 10 (2021).
- 8.Дустова Д. С. и др. О педагогическом мастерстве //european research. – 2020. – С. 132-134.
- 9.Safarov F. S. et al. Effect of a tissue biostimulator on the embryonic and post-embryonic development of lambs //Ucen. Zap. Azerbajdzan. sel'skohoz. Inst., Ser. vet. – 1969. – №. 4. – С. 69-72.
10. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter “Decimal” at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
11. Saidova G.E, Roziyeva Z.S. Methods for improving the system of assessing pupils 'knowledge based on the qualitological approach. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com>.2020. 321-326.
12. Hayitov H. A. Qushlarga ibrat-hazrati xizr! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
13. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel " Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. Middle European Scientific Bulleti
14. Xudoyerberdiyeva N. Abdulla qodiriy asarlarida tarixiy inversiya va folklor xronotopi masalasi: Научно-практическая конференция. – 2022.

### **ONA TILI VA O‘QISH DARSALARINI INTEGRATSIYALASHDA O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI FAOLIYATI MODELLARI**

Husenova Aziza Sharipovna,  
*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Maqolada ona tili va o‘qish darslarini integratsiyalashda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati modellari keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** integratsiya, didaktika, boshlang‘ich ta’lim, o‘qituvchi faoliyati, o‘quvchi faoliyati.

Boshlang‘ich maktab ta’lim-tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang‘ich ta’limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo‘ldi: darsni ikki fan o‘qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o‘qituvchi tomonidan o‘tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang‘ich ta’lim mazmunini tubdan o‘zgartirishgacha. Hozirgi kunda bir qator o‘quv predmetlari uchun umumiy bo‘lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o‘rnatish psixologik va metodik asos bo‘lgan integratsiyalangan darslar bilimini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish muhim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o‘rgatilishi va zarur o‘qitish vositalari bilan ta’minlanishi kerak. Tekshirish davomida o‘quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar – integratsiyalash uchun fanlarning mazmuniy jihatdan birlashishi, o‘qituvchi va o‘quvchi harakatlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlashdan iborat.

Rus tili izohli lug‘atida “integratsiya” – lotincha “integration” so‘zidan olingan bo‘lib, “integr” to‘liq yaxlit, bir butun degan ma’nolar anglatadi. Integratsiya – o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq ekani ta’kidlanadi. Pedagog olimlarning fikrmulohazalaridan kelib chiqqan holda, ushbu atamani quyidagicha izohlanadi: integratsiya – u yoki bu kasb egasiga kerak bo‘ladigan tarqoq bilimlar majmuuni yaxlit holga keltirish va vaqt me’yorlarini kreativlik asosida sarf etish mahoratidir.

Har tomonlama yetuk, barkamol yoshlarni yetishtirish uchun albatta malakali, o‘z mutaxassisligini chuqur egallagan o‘qituvchilar zarur. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod ta’lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ta’lim-tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo‘nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Maktabda ta’lim jarayonini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shaxs o‘qituvchidir. O‘qituvchi - bu maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan va pedagogik faoliyat bilan professional ravishda shug‘ullanadigan shaxs. Samarali pedagogik faoliyat uchun har bir o‘qituvchi aniq bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi zarur.

Didaktik tizimda predmetlararo integratsiyalash o‘qituvchi (ta’lim berish) va o‘quvchi (ta’lim olish) harakatlarining mos kelishini ko‘zda tutadi. Ikkala faoliyat ham maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat bosqichlariga bo‘linadi. Ammo o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati mazmuni farq qiladi.

- Maqsadli bosqichda o‘qituvchi umumiylar maqsadni qo‘yadi. O‘quvchilar o‘qituvchi boshchiligidagi predmetlararo bog‘liqlarnianiqlashlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlabolishlari kerak, bunda ular o‘z e’tibor fikrlarini faqat umumiylar bilimlarni o‘zlashtirishga emas balki, ko‘chirish tahlil qilish shaxsning belgilari qobiliyat va qiziqishlarining rivojlantirishga qaratishlari kerak.

- Isbotlash bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilarni dunyoqarashini o‘stiruvchi, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag‘batlantiradi. O‘quvchilar o‘z irodalarini dunyoqarashni kengaytuvchi bilimlarga qiziqishga yo‘naltiradi.

- Faoliyatning mazmun bosqichida o‘qituvchi yangi o‘quv materialini kiritadi, shu bilan birga integrastion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui darajasidagi tayanch bilimlarni jalb qiladi. O‘quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiylar bilimlar darajasida o‘zlashtiradi.

- Vositalar tanlash bosqichida o‘qituvchi turli predmetlar bilimlарини umumlashtirishga yordam beruvchi ko‘rgazmali vositalarni - darsliklar, jadvallar, sxemalar, savolnomalar, amaliy vazifalar beradi. O‘quvchilar ko‘chirish, umumlashtirish, birlashtirish xarakterlarini integratsion masalalarni xal qilishda ko‘rgazmali vositalar yordamida bajaradi.

- Keyingi bosqich - natija. O‘qituvchi ta’lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo‘llaydi. O‘quvchi bilimlar tizimida, umumlashtiradi va ularni amalda qo‘llaydi.

- Nazorat qilish bosqichida o‘qituvchi bir- biri bilan bog‘langan predmetlarga o‘quvchilarning tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, o‘zlashtirish sifatida baholaydi. O‘quvchilar o‘z bilimlarni baholashni, turli predmetlar bo‘yicha o‘z-o‘zini ham, ularni birlashtirish ko‘nikmalarini nazorat qiladi.

#### O‘qituvchi faoliyati

1. Yangi bilimlarni bayon qiladi, tushuntiradi.
2. O‘quv ma‘lumotlarini tushunishni tashkil qiladi.
3. Bilimlarni umumlashtirishni tashkil qiladi.
4. O‘quv materialini mustahkamlashni tashkil qiladi.
5. Bilimlarni qo‘llashni tashkil qiladi va o‘zlashtirish darajasini baholaydi.

#### O‘quvchi faoliyati

1. Axborotni qabul qiladi, bir oz tushuncha beradi.
2. Materialni tushunadi, chuqurroq tushunadi.
3. O‘rganilgan materialni umumlashtiradi.
4. Takrorlash orqali o‘rganishni mustahkamlash.
5. Mashqlar, topshiriqlar va hokazolarda bilimlardan foydalanadi.

O‘quvchilar bir narsani turlicha usullar bilan o‘zlashtiradi. Kimdir ko‘rganda o‘zlashtirsa, kimdir eshitganda yaxshiroq tushunadi. Bu esa o‘qituvchidan bir vaqtning o‘zida turli usullarni qo‘llash va o‘quvchilarni baholashda ham bunga e’tibor qaratishni talab etadi. O‘quvchilarning o‘zlashtirishiga ko‘rish, eshitish, o‘ylash, his qilish ta’sir qiladi. Bularni metodik tilga tarjima qilsak, quyidagicha bo‘ladi: amaliy faoliyat, tadqiqot, muammoni yechish, o‘yinlar, rolga kirishish. O‘qituvchi aynan shular orqali o‘quvchining o‘zlashtirgani yoki o‘zlashtirmaganini aniqlashga urinishi kerak.

Xulosa qilganda, ta’limni tabaqalashtirish rad etmaydigan, uni to‘ldiradigan integrastiya tizimini kiritish yaxlit dunyoqarashga, o‘zidagi bor bilimlarini mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga noan’anaviy yondashish qobiliyatiga ega bo‘lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalashga an’anaviy predmetlarga bo‘lib o‘qitishga nisbatan ko‘proq yordam beradi.

#### Foydalanimgan adabiyotlar:

- 1.Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi.-T.: “Ilm ziyo”, 2009.-64-98 betlar.
- 2.Tojiyev M., Ziyamuxammedov V., Uralova M. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat faning o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash. O‘quv qo‘llanma-T. «Tafakkur bo‘stoni», 2012

3.Sharipovna K. A. The role of learning activities in the design of teacher activities in the integration of primary school mother tongue lessons //Central Asian journal of literature, philosophy and culture. – 2021. – T. 2. – №. 10. – C. 111-114

4.Sharipovna H. A. Features of the Integrated Lesson //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – T. 11. – C. 306-310.

5.Амонов У. С. Научный подход А. Фитрата к пословицам //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – C. 5.

6.O.R.Avezov. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies. American journal of social and humanitarian research 3 (No. 1), 546-550

7. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences.

8.Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District. *Middle European Scientific Bulletin*. 10 (2021).

9.Дустова Д. С. и др. О педагогическом мастерстве //european research. – 2020. – C. 132-134.

10. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter “Decimal” at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.

11. Saidova G.E, Roziyeva Z.S. Methods for improving the system of assessing pupils knowledge based on the qualitological approach. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* <https://saarj.com>.2020. 321-326.

13. Hayitov H. A. Qushlarga ibrat – hazrati Xizr! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – C. 72-73.

14. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel " Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulleti*

15. Xudoyberdiyeva N. Abdulla qodiriy asarlarida tarixiy inversiya va folklor xronotopi masalasi: DOI: 10.53885/edinres. 2021.33. 43.090 //Научно-практическая конференция. – 2022.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITALARI

Husenova Aziza Sharipovna,

*BuxDU tayanch doktoranti*

Usmonqulova Sohiba Mirzohid qizi,

*BuxDUPI talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o‘qituvchilarga boshlang‘ich ona tili ta’limidan yangi tahrirdagi “Milliy o‘quv dastur” asosida me’yoriy-majburiy talablarni o‘quvchilar ongiga singdirish yo‘llari hamda darslarning samaradorligini oshiruvchi vositalar haqida bilim beradi.

**Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich ta’lim, Milliy o‘quv dasturi, innovatsiya, pedagogik texnologiya, didaktik o‘yin, savodxonlik.

Ta’lim samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quv-uslubiy dasturlar va darsliklar saviyasiga bog‘liq. Xususan, respublikamizda keyingi yillarda til savodxonligi va nutq madaniyatining keskin pasayib ketganligi, nafaqat og‘zaki, hatto yozma nutqda ham o‘zbek adabiy tili me’yorlariga amal qilinmayotganligi, husnixatga umuman e’tibor qaratilmayotganligi, o‘quv dasturlaridan insho, bayon, diktant kabi yozma ish turlarining deyarli chiqib ketganligi, darsliklarda faqat tayyor matn ustida ishlash va matn yaratish topshiriqlari berilayotganligi o‘quvchilarining ijodiy fikrlashiga chegara qo‘ymoqda. Yakuniy nazorat ishlarining test shakliga o‘tkazilishi o‘quvchilarini ijodiy fikrlash, bog‘lanishli nutq tuzish, savodli va chiroyli yozish ko‘nikma-malakalarini egallashga bo‘lgan intilishlarini cheklamoqda Bunga sabab avvalgi o‘quv dasturlarining mazmuni 90 foiz nazariyadan iborat bo‘lib, o‘qitish metodikasi yodlatishga yo‘naltirilganlidadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni asosida tayanch o‘quv rejasini takomillashtirish hamda o‘zaro uzviy bog‘liq fanlarni birlashtirish hisobiga ularning sonini optimallashtirish belgilandi. Bunda ko‘zlangan asosiy maqsad endi songa emas, sifatga urg‘u berish, turli fanlardagi takrorlarning oldini olishdan iborat.

Yangi Milliy o‘quv dasturi mazmuni 50 foiz nazariya, 50 foiz amaliyotdan iborat bo‘ladi va bu o‘quvchining mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Bunda o‘quvchi olgan bilimlarini hayotdagi turli vaziyatlarda amaliy qo‘llay oladi. Amaldagi dasturda fanlararo o‘zaro uyg‘unlik bo‘lmashtirishga bois o‘quvchining mantiqiy fikrlash jarayonini chegaralab qo‘yishga sabab bo‘lgan. Yangi

Oqila Tolibova, BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIATSHUNOSLIK FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH .....	110
Бабаева Шоира Баймурадовна, МОДЕЛИРОВАНИЕ СВЯЗНЫХ ТЕКСТОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ТРАДИЦИОННЫХ ЦЕННОСТЕЙ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО НАРОДА .....	112
Jo‘rayeva Oliya Usmonjon qizi, BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MASAL JANRINI O‘QITISH METODIKASI .....	114
Safarov Firuz Sulaymonovich, Istamova Nasiba Amrillo qizi, BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI NUTQINI O‘XSHATISHLAR BILAN BOYITISH USULLARI .....	115
Raximova Gularo Ibragimovna. MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASASI PEDAGOGIK JAMOASINING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MATEMATIK TAFAKKURINI RIVOJLANISHI BO‘YICHA OILA BILAN O‘ZARO HAMKORLIGI .....	117
Дилноза Ғуломовна Назарова, МАКТАБДА ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИ МАҚСАДИНинг ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ.....	119
D.B.Axmedova, Murodova Saodat Uyg‘un qizi, BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARING O‘RNI .....	121
Subhonova Sabohat, BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI YOZUVGA O‘RGATISHDA QO‘LLANILADIGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR .....	122
Saidova Shahlo Tolibovna, TEACHING MATHEMATICS IN PRIMARY SCHOOLS USING OF INTERACTIVE METHODS.....	124
Avezov Sobid Safarovich, MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TOVUSH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV JARAYON LOYIHASI.....	125
Fattullayeva Mahzuna Maqsud qizi, O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAK O‘QITISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI.....	127
B. B. Tulepbergenova, BOSHLANGICH SINF O‘QUVCHILARINING TARIXIY ONGINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY SHAXSLARNING O‘RNI .....	129
Kumush Temirova, BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH .....	130
Qosimov Fayzullo Muhammedovich, Fayzullayeva Sarvinoz Nabi qizi. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI O‘STIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI.....	133
Safarov Firuz Sulaymonovich, Rajabova Xurshidabonu, BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI LUG‘ATINI FAOLLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI .....	135
Valijonova Zarina Xurshid qizi. BOLALARDA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING RIVOJLANISHIDA NUTQ O‘STIRISH MASHG‘ULOTLARINING AHAMIYATI.....	138
N. B. Xaitova, TABIIY FANLARDA ZAMONAVIY DARSLARNING AHAMIYATI .....	140
Ражабова Нодирабегим Комиловна, ТАЛАБАЛАРНИНГ ИЛМИЙ -ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИДА ИШТИРОК ЭТИШЛАРИ УЧУН РАҒБАТЛАНТИРИШ ВА МУКОФОТЛАШ ТИЗИМИ .....	142
Ergashova Munisa Hoshim qizi, Rasulova Oydin Zoirjon qizi, MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR .....	144
Ro‘ziqulova Shaxnoza Toxirovna, “YUZA O‘LCHOV BIRLIKLARI” MAVZUSINI O‘TISH USULLARI .....	145
Davranova Gulbahor Numondjonovna, Melisova Shaxrizoda Oybek qizi, MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIDA SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVI.....	149
Yusupova Aziza Nodirjon qizi, MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNING INTELEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH .....	151
Husenova Aziza Sharipovna, ONA TILI VA O‘QISH DARSLARINI INTEGRATSIYALASHDA O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI FAOLIYATI MODELLARI .....	153
Husenova Aziza Sharipovna, Usmonqulova Sohiba Mirzohid qizi, BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITALARI .....	155
Ro‘ziyeva Sadoqat Hasanovna, M. Bozorova, MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TEATRLASHTIRILGAN MASHG‘ULOTLARGA INNOVATSION YONDASHUV .....	157
Tosheva Nurzoda Toshtemirovna, M.Sh. Mustafoyeva, TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING YOSH VA INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	159